



MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN ALOQALARI MAVZU YUZASIDAN INKLYUZIV TA‘LIM UCHUN DARS O‘TISH METODIKASI TAHLILI

Abduraimova Charos

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonning markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari mavzusini o‘tish jarayonida inklyuziv bolalar bilan ishlash, bu sharoitda nimalarga e‘tiborli bo‘lish va inklyuziv ta‘limda qanday metodlar dars uchun samarali hamda muvofiq ekanligi, inklyuziv ta‘lim o‘zi nima ekanligi kabi masalalar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *metod, inklyuziv ta‘lim, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, xalq ta‘lim tizimi*

Tarixdan ham ma‘lumki, har bir davr borki o‘z o‘qitish texnikasiga egadir. Dastlabki vaqtlarda bu jarayonlar usul deb nomlangan bo‘lsa hozirgi kunda biz bu jarayonlarni dars o‘tish metodikasi deb atab kelyapmiz. Metodika bugun yoki kecha shakllangan hodisa emas. U ko‘p davrlik tarixga ega desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta‘lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan bir qismi bolalarning alohida ta‘lim ehtiyojlari hisobga olgan holda ta‘lim berishni va dars jarayonlarini tashkil etishni hisobga oladigan inklyuziv ta‘lim g‘oyalarini davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta‘minlash hisoblanadi¹⁸. Inklyuziv ta‘lim o‘zi nima? Inklyuziv ta‘lim bu-dars jarayonlarida sog‘lom bolalar bilan rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni birgalikda o‘qishini shakllantirish hisoblanadi. Oldingi vaqtlarda ta‘lim jarayonida rivojlanishida nuqsoni bor bolalar alohida uy sharoitida darslarni o‘zlashtirishganlar. Biroq hozirgi kunga kelib rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bilan sog‘lom bolalarni birgalikda o‘qitish dasturlari shakllantirilib borilmoqda hamda bu vaziyatga davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlar uchun asos bo‘luvchi manbalardan biri bu yangi tahrirdagi ta‘lim to‘g‘risidagi qonundir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 29 aprelda PF5712-son “Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ–4860-son “Alohida

¹⁸ F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “Inklyuziv ta‘lim: nazariya va metodika”. Chirchiq-2022. 4-bet

ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori va boshya xujjatlarda kadrlar masalasi, ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan¹⁹.


Tarix fanlari davomida ham umuman olganda hamma dars jarayonlarini metodlardan foydalanayotganimizda bu jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqillik yillarida yurtimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari mavzusida inklyuziv ta'lim uchun metodlarning shakllantirilib holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu holatda biz o'quvchining qanday kasallik bilan og'rikanligi hamda uning psixologik holatini alohida tahlil qilishimiz kerak. Dastlab mavzuning bayoni qismiga to'xtaladigan bo'lsak, bu jarayonda bizda eshitishida nuqsoni bor o'quvchi sinfda bor deb hisoblasak, biz mavzu bayoni uchun elektron slayd ko'rinishidagi yoki videorolik ko'rinishidagi ma'lumotlardan foydalanishimiz ma'qulroq bo'ladi. Shuningdek shaxslar faoliyati mavzusiga to'xtalganimizda rasmlar va ko'rgazmali qurollardan foydalana olamiz. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda²⁰.



Biz birinchi rasm orqali o'quvchilarga yurtimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy hamkorligi orqali har bir yilda qancha mablag'lik ishlar olib borilganligini bayon etib bera olamiz. Ikkinchi rasm orqali esam, biz yurtimizning qaysi davlatlar bilan chegaradoshligi hamda bu davlatlarning bayroqlari qandayligi haqida o'quvchilarga ma'lumot berishimiz kumkin yoki bo'lmasam, qaysi tomondan qaysi davlatlar bilan chegaradosh ekanligimizni ham ko'rsatib izohlab keta olamiz.

¹⁹ F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika”. Chirchiq-2022. 5-bet

²⁰ N.B.Goipova “Inklyuziv ta'lim hospital pedagogika”. Namagan-2024. 7-bet



Bu rasm orqali biz hozirgi kunda qo'shni davrlarimizning baryoqlari hamda prezidentlari haqida ma'lumotlar bera olamiz. Nima uchun biz eshitishda nuqsni bor o'quvchi uchun elektron manbalarni tanlay olamiz desak, sababi biz bu orqali o'quvchiga eshtib tushunishidan ko'ra ko'proq ma'lumot bera olamiz. Negaki, ko'rish xotirasi ham insonlarning eslab qolishida muhim rol o'ynaydigan jihatidir. Bola videorolikni ko'rish orqali mavzu haqida ma'lumotlarni o'z miyasida jonlantirgan holda eslab qola oladi.

Guruh bilan ishlash metodi ham inklyuziv ta'lim uchun qulay hamda foydali metodlardan biridir²¹. Bu metod orqali o'quvchilarning diqatini darsga qaratish mumkin. Shuningdek bu metod orqali o'quvchilar o'zlarining shaxsiy fikrlarini erkin bayon eta olishlari ham tajribalarda isbotlangan. Guruh bilan ishlash metodi uchun 3-4 ta savol tuzsak,

1. yurtimizning mustaqillikka erishgandan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari qay tarzda tashkil etildi?
2. Qo'shni davlatlar bilan davalt chegaralari bo'yicha qanday shartnoma va bitimlar tuzildi?
3. Vatanimiz chegaradosh davlatlari bilan sanoat sohasida qanday bitimlar imzoladi va ularni amalga oshirishdagi yaratilgan qulayliklar qanday bo'ldi?

Bu kabi savollarni guruh bilan ishlash metodi orqali tahlil etilsa, har bir guruhdan har xil fikrlar beriladi. Bu natijada fikrlar xilma-xilligi vujudga keladi. Bu jarayon yangi fikrlarni shakllanishiga ham asos bo'la oladi. Bu kabi savollarga javob berilishi orqali o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirib olganliklarini ham bilib olishimiz mumkin. Biz inklyuziv ta'lim jarayonida uyga vazifa berishda ham alohida e'tiborli bo'lgan holda topshiriqlarni shakllantirishimiz kerak. Misol uchun shu kabi topshiriqlarni berish maqbul deb o'ylayman.

- Geogragik xaritadan yurtimizning chegaradosh davlatlarini topish hamda ularning poytaxtlarini belgilash;

²¹ F.U.Qodirova, D.A.Pulatova "Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika". Chirchiq-2022. 25-bet



- Har bir davlat bilan o‘zaro do‘stlik bo‘yicha tuzilgan shartnomalarni yillariga qarab xronologik ketma-ketlikda yozish orqali jadval yaratish;

- Mavzu yuzasidan 5 ta test tuzish.

Bu topshiriqlar orqali biz bir qancha maqsadlarga erishishimiz mumkin. Birinchi topshiriq orqali o‘quvchining tafakkurida Markaziy Osiyo davlatlarining xaritasini tuza olamiz, ikkinchi topshiriq bo‘yicha esa, xronologiyani xronologik izchillikni o‘quvchilarga o‘rgata olamiz, uchunchi topshiriqni bajarilishi bolalarda savol berish va javob berish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, tarix darslarida interfaol metodlarning ko‘plab turlaridan foydalana olamiz. Shunday bo‘lsada biz bu metodlarni tanlashda o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini ham hisobga olishimiz kerak. Chunki sizning dars o‘tayotgan sinfingizda alohida nuqsoni bor o‘quvchi o‘qiyotgan bo‘lsa, siz uning imkoniyatlarini e‘tiborga olishingiz hamda uning holatini hurmat qilgan holda dars jarayonini shakllantirishingiz kerak. Sababi har kim bilim olish huquqiga egadir. Sizning qanchalik samarali metodlarni darsda qo‘llay olishingiz sizning pedagogik mahoratingizni belgilash bilan birga, sinfning faolligini, darsga qiziqishning yuqoriligini, vaqtdan unumli foydalanishni ta‘minlaydi. Bu kabi holatlar yetuk pedagogik kadrning hislatlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Y.U.Xolxujayeva. “Yangi davr tarixi” o‘quv qo‘llanma. Samarqand-2025. 364-bet.
2. R.X.Murtazayeva. “O‘zbekiston tarixi”. “Yangi asr avlodi”. T-2003. 675-bet
3. B.Eshov. “O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”. T-2012. 455-bet.
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “Inklyuziv ta‘lim: nazariya va metodika”. Chirchiq-2022. 259-bet
5. N.B.Goipova “Inklyuziv ta‘lim gospital pedagogika”. Namagan-2024. 252-bet